



TOSHKENT SHAHARIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023-yil yanvar - noyabr*






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **13 996** tani tashkil etib, 2022-yil 1-dekabrga nisbatan **2 879** taga kamaygan (o'sish sur'ati **82,7%**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **284** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **13 838** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi **69 420,0** mlrd.so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **111,4 %** ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **30 329,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **123,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **39 091,0**mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **103,4 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 766,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **118,8 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar .	69 420,0	111,4	30 329,0	123,8	39 091,0	103,4
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	6 130,1	106,3	1 042,9	106,3	5 087,1	106,3
Bektemir	2 509,8	111,0	415,6	72,3	2 094,1	124,2
Yunusobod	8 096,5	107,0	2 544,0	76,8	5 552,4	130,7
Mirzo-Ulug'bek	5 254,7	116,2	2 768,2	143,6	2 486,5	95,9
Mirobod	5 587,8	117,2	3 313,6	128,8	2 274,2	103,6
Shayxontohur	6 931,2	107,9	4 117,5	147,1	2 813,7	77,6
Olmazor	5 647,7	108,5	2 444,5	101,1	3 203,3	114,8
Sergeli	3 586,1	116,2	1 925,2	168,1	1 661,0	85,5
Yakkasaroy	6 467,4	117,2	2 741,3	152,4	3 726,0	100,2
Yashnobod	5 719,3	113,5	2 485,4	123,7	3 233,9	106,8
Yangihayot	952,5	119,1	505,2	131,0	447,4	108,0
Chilonzor	12 536,9	110,4	6 025,5	131,8	6 511,4	95,9

2023-yilning yanvar – noyabr oylarida 2022-yilning yanvar- noyabr oyiga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (**119,1 %**), Yakkasaroy (**117,2 %**), Mirobod (**117,1 %**) va Mirzo Ulug'bek (**116,2 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar - noyabr, mlrd.so'm)



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan **114,8 %** ni yoki **46 604,8** mlrd. so'mni tashkil qildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda)

(2022-yil, 2023-yil yanvar – noyabr oylari)



2023-yilning yanvar – noyabr oyida o'sish sur'ati 111,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **18,1 %** bilan **12 536,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Yangihayot tumani **1,4 %** bilan **952,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish kuzatildi.



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **39 091,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar – noyabr oylariga nisbatan **103,4** % ga ko'paydi. Toshkent shahar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **56,3** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar – noyabr oylariga nisbatan **123,8** % ga o'sdi va **30 329,0** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **43,7** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (**16,7%**), Yunusobod (**14,2%**) va Uchtepa (**13,0%**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **43,7 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (**19,9 %**), Shayxontohur (**13,6 %**), Mirobod (**10,9%**), Mirzo Ulug'bek (**9,1 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Toshkent shahar	23 229,8	108,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	20 716,7	103,7
Bektemir	43 724,4	102,7
Yunusobod	21 852,9	104,6
Mirzo-Ulug'bek	16 113,7	113,2
Mirobod	37 103,6	114,6
Shayxontohur	19 125,8	106,2
Olmazor	14 165,3	105,8
Sergeli	21 800,3	108,0
Yakkasaroy	49 941,2	113,2
Yashnobod	19 486,7	109,3
Yangihayot	5 734,7	111,0
Chilonzor	45 889,0	108,5


2023-yilning yanvar-noyabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 23 229,8 ming. so'mni (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 108,0 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (**49 941,2** ming. so'm), Chilonzor (**45 889,0** ming. so'm) va Bektemir(**43 724,4** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Toshkent shahri bo'yicha 2023-yilning yanvar - noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 766 800,9** mln.so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar – noyabr oylariga nisbatan **118,8 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 567 205,3** mln.so'mni (**121,3%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **199 595,7** mln. so'mni tashkil etdi (**101,3 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi

(mln. so'm)



Tumanlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi ulushi, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mln. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar. tumanlar:	1 766 800,9	118,8	1382645,3	121,3	199 595,7	101,3
Uchtepa	159 604,2	117,4	170703,7	2,5 m.	-	-
Bektemir	553 536,9	2,3m.	398210,9	133,9	199 516,5	101,3
Yunusobod	180 092,7	93,6	215678,4	86,8	-	-
Mirzo-Ulug'bek	283 208,4	189,3	284156,0	181,6	-	-
Mirobod	79 708,2	105,2	74841,3	3,3 m.	-	-
Shayxontohur	187 265,8	135,5	228532,4	94,1	-	-
Olmazor	43 920,7	70,0	33153,2	66,2	79,2	70,7
Sergeli	67 326,7	109,8	61809,8	151,9	-	-
Yakkasaroy	52 522,3	51,4	28127,3	67,8	-	-
Yashnobod	109 853,9	58,9	61456,1	63,8	-	-
Yangihayot	3 330,5	30,2	-	-	-	-
Chilonzor	46 430,5	36,8	10536,2	38,2	-	-

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;




– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar - noyabr oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 567 205,3** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**685 204,3** mln. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mln. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	685 204,3
	Non va non mahsulotlari	126 110,3
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	170644,7
	Tovuq go'shti	179 060,5
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	91 238,5
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	42586,5
	Tuxum	54 429,4
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	3383,0
	Ziravorlar	110345,8
	Tuzlamalar	40183,9
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	22 944,4
	Nooziq-ovqat tovarlari	41074,0

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mln.so'm

2023-yilning yanvar – noyabr oylarida Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tumanida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 199 595,7 mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 167 165,8 mln.so'm, qo'y va echkilar – 28 189,0 mln. so'mni, otlar – 4 161,6 mln. so'mni, parrandalar – 79,2mln. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mln. so'm
	2 yoshdan kata bo'lgan qoramollar	135 302,0
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	12 791,0
	1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	19 072,9
	Qo'ylar	27 274,1
	Otlar	4 161,6
	Echkilar	914,9
	Kurka, o'rdak, g'oz	43,3
	Tovuqlar	35,9
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023-yil 1-noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 5 514 tani tashkil etib, 2022-yil 1 – noyabr holatiga nisbatan 1 885 taga kamaygan va o'sish sur'ati 74,8 % ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 76 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 538 tani tashkil qildi.


2023-yilning yanvar - noyabr oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi 6 844,2 mlrd.ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining 60,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	6 844,2	113,3	2 707,7	120,5	4 136,6	109,0
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	193,3	117,6	1,0	13,9	192,3	122,3
Bektemir	102,2	107,2	63,8	117,5	38,5	93,7
Yunusobod	965,3	118,8	414,4	169,8	550,9	96,9
Mirzo-Ulug'bek	685,2	109,3	44,1	105,7	641,1	109,5
Mirobod	505,7	107,7	84,7	126,5	421,0	104,6
Shayxontohur	1 889,0	112,3	1 415,1	109,6	473,9	121,2
Olmazor	323,2	112,8	23,0	64,2	300,2	119,7
Sergeli	509,9	130,7	393,5	135,8	116,4	115,8
Yakkasaroy	573,7	110,4	59,3	187,2	514,4	105,5
Yashnobod	464,7	112,0	151,8	110,5	312,9	112,8
Yangihayot	105,1	109,1	-	-	105,1	109,4
Chilonzor	526,8	108,7	57,0	121,1	469,8	107,4

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yil 1-noyabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) 24 547,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan 112,9 % ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 10 334,6 mlrd. so'm (o'sish sur'ati- 101,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 14 213,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 123,1 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri tumanlar:	24 547,6	100,0
Uchtepa	926,5	3,8
Bektemir	1 192,5	4,9
Yunusobod	2 173,7	8,9
Mirzo-Ulug'bek	1 250,5	5,1
Mirobod	2 130,6	8,7
Shayxontohur	2 552,7	10,4
Olmazor	239,6	1,0
Sergeli	6 921,3	28,2
Yakkasaroy	2 416,5	9,8
Yashnobod	1 867,1	7,6
Yangihayot	1 583,9	6,5
Chilonzor	1 292,7	5,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Sergeli (**6 921,3** mlrd. so'm), Shayxontohur (**2 552,7** mlrd. so'm) va Yakkasaroy (**2 416,5** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Toshkent shahar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 147 374,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 114,9 % ga o‘tdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 96 924,7 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ga to‘g‘ri keldi. Toshkent shahrida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 65,8 % ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Sergeli (**31,1 b.**), Mirobod (**27,0 b.**) va Bektemir (**26,5 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023-yil 1-noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **16 806** tani tashkil etib, 2022-yil 1-noyabr holatiga nisbatan **729** taga kamaygan, o'sish sur'ati **95,8 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **224** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **16 582** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – noyabr oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar .	147 374,7	114,9	50450,0	128,5	96 924,7	108,9
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	9 058,9	106,2	779,2	84,5	8 279,7	108,8
Bektemir	1 859,0	126,5	174,6	11,2 m.	1 684,4	115,9
Yunusobod	12 741,0	116,1	4 145,0	126,4	8 596,0	111,7
Mirzo-Ulug'bek	12 332,0	108,3	2 690,0	119,8	9 642,0	105,5
Mirobod	17 770,5	127,0	3 104,8	167,6	14 665,7	120,8
Shayxontohur	9 076,2	115,2	2 635,1	118,4	6 441,1	114,0
Olmazor	20 750,5	110,2	9 210,5	116,4	11 540,0	105,7
Sergeli	7 240,3	131,1	3 878,9	2,3 m.	3 361,4	87,9
Yakkasaroy	16 588,7	101,2	6 372,0	107,1	10 216,7	97,8
Yashnobod	19 614,0	124,1	10 960,3	143,1	8 653,7	106,1
Yangihayot	1 270,3	112,7	327,2	118,7	943,1	110,8
Chilonzor	19 073,1	116,9	6 172,3	118,3	12 900,8	116,2



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 71-202-88-21 (20)**